

## INTERNETNING BOLALARGA TA'SIRI

*Guliston Davlat Universiteti  
Sirtqi Pedagogika va Psixologiya fakulteti  
1-20guruh talabasi Achilova Sevara*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning internet tarmoqlaridan foydalanish qoidalari va madaniyati bunda ota-onalar hamda maktab o'qituvchilarining tutgan o'rni, internetdan foydalanish meyorlari to'g'risida umumiy tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** internet, axborot, xavfsiz parol, ota-ona nazorati, Kaspersky Safe Kids, Facebook, Kiberxavfsizlik, virtual olam, smartfon, planshet.

Internet — bu deyarli barcha qiziqishlarni qondirish makonidir. Ba'zan tarmoqda ayrim axborotlarni izlab o'tirishning ham hojati bo'lmaydi, ular har yerda o'zlari taqdim etilaverishi sababli osongina erishish mumkin.

Shunday ekan undagi ba'zi bir xavflarning oldini olish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish zarur:

1. Farzandingiz tarmoqdan foydalanmoqchi bo'lganida uni nazoratdan chetda qoldirmang;

2. Farzandingizning tarmoqqa birinchi qadamlaridanoq, Internetda faqatgina "yaxshi" emas, balki "yomon" axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntiring;

3. Internetdan biror manbani saqlab olishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan qoidalarni tushuntiring;

4. Farzandingizga tarmoqda ham haqiqiy hayotdagi kabi tartib-intizom qoidalarini unutmang zarurligini ta'kidlang;

5. Farzandingizning Internetdan foydalanishida ba'zi hollarda cheklovlarni o'rnatmang;

6. Har kuni farzandingiz muloqotlarini kuzatib borishni o'zingizga odat qiling;

7. Farzandingiz va o'zingizning kompyuter savodxonligingizni muntazam rivojlantirib boring. O'z bilimlaringiz bilan o'rtoqlashing. Internet xavfsizligi sizning bu boradagi bilim va malakangizga ham bog'liq ekanligini unutmang.

Bunday tarmoqlar orqali, bolalar dunyodagi boshqa millatlar va ularning kulturasiga yaqinlashishlari, yangiliklarni va ilmiy ma'lumotlarni o'rganishlari, turli xil fan va maruza videolarini ko'rishlari, o'yin o'ynashlari va boshqalar bilan aloqa olishlari mumkin. [Bu faoliyatlar](#), bolalar o'rganishini va o'z fikrlarini ifoda qilishini oshirishi mumkin.

Bolalarga internetni o'rganish va uning xavfsizligi haqida ta'lim berish, ularni qanday xavfsiz tuyulishi kerakligini tushuntirish, [xavfsiz parol yaratish](#), shaxsiy

ma'lumotlarni nima uchun foydalanishini tushunish, hatto xavfsizlik so'raladigan tarmoqlardan foydalanishini ham o'rganish kerak.

Internetda juda ko'p foydali va qiziqarli ma'lumotlar mavjud va undan to'g'ri foydalanilsa bola uchun foydali bo'ladi. "Kaspirskiy laboratoriyasi" [tadqiqotlariga](#) ko'ra, ota-onalar bolalarning onlayn xavfsizligini ta'minlashni bilishmaydi va 84 foiz ota-onalar farzandlarining internet olamida duch kelishi mumkin bo'lgan tahdidlardan xavotir olishadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarning 90 foizdan ortig'i internetga ulangan smartfon, planshetlardan foydalanadi. Ota-onalar farzandi internetda onlayn tahdidlarga uchrashidan xavotir olishsa ham ularni bundan mahrum qilishni noto'g'ri ish deb hisoblashadi.

Bolalar psixologi Emma Kennining aytishicha, ota-onalar ko'pincha bolalarni zo'ravonlik sahnalari aks etgan videolar ko'rishi yoki internetga qaram bo'lib qolishdan qo'rqishadi. Ammo onlayn xatarga uchrash bolaning ruhiyatiga qattiq ta'sir qilishi isbotlangan. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida 60 foiz oilalarning farzandlari onlayn tahdidlarga duch kelishgan yoki guvoh bo'lishgani aytilgan. 13 foiz bolalar zo'ravonlik qurboni bo'lgan, 14 foizi esa o'zining shaxsiy va boshqa ma'lumotlarini ulashishdan aziyat chekadi. Chunki ular onlayn tarzda shaxsiy ma'lumotlarini oson oshkor qilishadi, oqibatda bundan foydalangan "onlayn do'st" qo'y terisidagi bo'ri bo'lib chiqadi.

### **Ota-ona nazorati**

Biz bolalarga virtual olamni real kabi jiddiy qabul qilishga o'rgatishimiz kerak. Yo'qsa u uy ichida o'tirib ham onlayn tahdidlarga uchrashi mumkin. Buni faqatgina bolalar kiradigan kontentni filtrlash, ilovalardan foydalanishlarini nazorat qilish, onlayn makondagi tahdidlardan ogohlantiruvchi xavfsizlik tizimi orqali qilsa bo'ladi. Masalan, Kaspersky Safe Kids ilovasi orqali buni amalga oshirish mumkin. Ilova bilan:

- \* Bola qanday dasturlardan foydalanishi haqida ma'lumot olasiz.
- \* U internetdagi muayyan ilovalardan foydalanishi uchun vaqtni siz belgilab berasiz.
- \* Farzandingizning internetdagi faoliyatini nazorat qilish orqali rejimga tushirasiz. Bola xavfli kontentlarga yoki kattalar uchun mo'ljallangan resurslarga kirmoqchi bo'lsa, dastur sizga ogohlantiruvchi xabarnoma yuboradi.
- \* Dastur bolangizning Facebook, VKontakte va shunga o'xshash boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi do'stlari haqida ma'lumot beradi. Agar bola shubhali do'st qabul qilsa, sizga ogohlantiruvchi signal beriladi.
- \* Tizim orqali bolangizni internetda harakatlanuvchi xavfsizlik perimetrlari o'rnatiladi. Agar bola bu perimetrdan tashqariga chiqsa sizga xabarnoma yetkaziladi. Bundan tashqari, tizimda bola hozir qayerda ekanligini ham tekshirish mumkin.

Biroq, faqat texnik imkoniyatlar bilan cheklanish yaramaydi. Agar farzandingiz internetga kirishi oqibatida uning xulqida o'zgarish sodir bo'layotganini sezsangiz, eng kuchli xavfsizlik tizimi ham samimiy suhbat o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun bola bilan internetda o'zini tutish qoidalari, u yerda uchrashi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar haqida doim ochiq va samimiy gaplashib turing.

Bola internetga kirib chiqqach unda qandaydir o'zgarish kuzatilsa u bilan nimadir yuz berganini taxmin qiling. Yuzma-yuz gaplashish katta natija bermasligi mumkin, lekin ba'zan muammoni issig'ida bartaraf qilish imkonini ham beradi. Bundan tashqari, bolangizga u siz uchun qanchalik muhim ekanligini ham isbotlagan bo'lasiz.

O'z farzandiga haqiqiy hayotda ham, virtual olamda ham xavfsizlikni tushuntirish, turli tahdidlardan ogohlantirish ota-onaning burchidir. Kiberxavfsizlik masalalarini jiddiy qabul qiling. Shunda siz farzandlaringiz uchun namuna bo'lib xizmat qilsangiz, ular ham internetdan qo'rqmasdan va zavq bilan foydalanishadi. Natijada ular ijtimoiy tarmoq etiketi haqida barcha bilimlarga ega bo'lib ulg'ayishadi.

#### **Internetdan foydalanish vaqtini cheklash.**

Bolalarga internetdan foydalanish uchun qolip kerak. Ularga internetda o'tirish uchun qancha vaqt yetarli bo'lishi haqida so'rab, kelishgan holda ma'lum vaqt belgilang va buni doim nazorat qiling.

Bolalarga har qanday ijtimoiy tarmoqda moderatorlarga noo'rin kontent haqida shikoyat qilish imkoniyati borligini tushuntiring. Ularga bundan foydalanishni o'rgating. Masalan, haqoratli izohlar yoki xabarlarni o'chiring va moderatorni xabardor qiling. Bolada bu bilan onlayn harakatlar haqida ko'nikma paydo bo'ladi.

Virtual hayotda bolalar ba'zan yoqimsiz holatlarga ham duch kelishadi. Bunday hollarda sizning reaksiyangiz juda muhimdir. G'azablanmang, balki bolaga kelajakda nima qilsa to'g'ri bo'lishini tushuntirib, qanday yo'l tutayotganini zimdan nazorat qiling.

Bolalar bilan ochiqchasiga gaplashing: ijtimoiy tarmoqqa yuklanadigan ma'lumotlar u yerda abadiy qolishi mumkin. Agar o'qituvchisi yoki buvisi u yuklagan fotosuratni ko'rsa, nima bo'lishi mumkinligini yoxud bola ulg'ayib, obro'li lavozim egasi bo'lganda bu surat qanday ta'sir ko'rsatishini o'ylab ko'rsin. Bolalar internetdagi har bir harakatlarining oqibatlarini tushunishi kerak.

O'z bilimingiz darajasini oshiring. Virtual dunyo haqida batafsil tushunchaga ega bo'lish bu haqda bolalar bilan ishonchliroq gaplasha olishga imkon yaratadi. Dangasalik qilmang: farzandingiz foydalanadigan barcha ijtimoiy tarmoqlarda ro'yxatdan o'ting, ijtimoiy tarmoqda uning do'stlari safiga qo'shiling, uning postlarini o'qing, u a'zo bo'lgan jamoalar bilan tanishing. Onlayn xavfsizlik haqida maqolalar o'qing, farzandingiz bilan internetda o'yinlar o'ynang (shunday o'yinlar bor). Bola vaqt o'tkazadigan dunyoning bir qismi bo'ling – shunda u siz bilan o'zining onlayn

hayot tafsilotlarini baham ko'rishga va maslahatlaringizni tinglashga bajonidil tayyor bo'ladi

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, farzandingiz internetda nima bilan mashg'ulligi, qaysi manbalardan foydalanayotgani haqida qiziqing. Buni bola bilan chin ko'ngildan gaplashish, ba'zida u bilan birga internetda vaqt o'tkazish (masalan birga o'yin o'ynash) uni keraksiz kontentlardan himoya qilish imkonini beradi.

Bolalarga mustaqil tarzda internetdan foydalanishga yo'l qo'ymang. Internetga kirish uchun qurilmani umumiy xonada saqlang. Shunda bola siz shu yerda ekanligingizni hisobga olgan holda o'zini nazorat qiladi. Agar siz bolangizning onlayn faoliyatini shaxsan kuzata olmasangiz, ota-ona nazorati ilovasidan foydalaning.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.amerikaovozi.com/a/health-social-media-children/4203568.html>
2. <https://fayllar.org/internetning-bolalar-hayotida-yaxshi-tasiri-mavjud-bolishimum.html>
3. [https://www.naqshband.uz/makolalar/internetning\\_yoshlar\\_tarbiyasiga\\_tasiri](https://www.naqshband.uz/makolalar/internetning_yoshlar_tarbiyasiga_tasiri)
4. <https://kun.uz/news/2021/10/17/farzandingizni-internetda-qanday-himoya-qilishni-bilasizmi-ota-onalar-uchun-tavsiyalar?q=%2Fnews%2F2021%2F10%2F17%2Ffarzandingizni-internetda-qanday-himoya-qilishni-bilasizmi-ota-onalar-uchun-tavsiyalar>.